



## AXBOROTDAN TO'G'RI FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Umataliyeva Gulhayo Rahmonali qizi

Farg'onan viloyati yuridik texnikum 1-bosqich 33-23 guruhi o'quvchisi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada INTERNET VA UNDAN FOYDALANISH MADANIYATI, Internetdan xavfsiz foydalanishi yo'llari va undan oqilona foydalanish asoslari, Internet va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, yoshlar ortasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos uslublari, uning yoshlar kamolotidagi tutgan o'rni haqida qarashlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Internet, foydalanish madaniyati, Internetdan xavfsiz foydalanishi, yoshlar, axborot, axborot madaniyati, ta'lif.*

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning internetdan foydalanish haqidagi fikrlari: "Internetni biz do'konga o'xshatishimiz mumkin, u yerda hamma narsani topa olamiz. U yerdan har bir inson o'ziga kerakli narsalarni oladi. Agar biz ham internetdan kerakli narsalarni olishni o'rgana olsak, bizning yuksak ma'naviyatli yoshlarimiz ongiga hech qanday xurujlar ta'sir eta olmaydi".

Internet bu – xozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir.

Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa bu ta'sir doirasidan o'smir yoshlar ham yo'q emas. Bu borada mutaxasislarning so'zлari quyidagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog'idagi ijobiylilik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir.

Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushohada, tahlil qilish qobiliyati va xotiraning o'tkirlilik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lмаган va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yор talablari, ya'ni internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinnlidir. Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda.



21 asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i - internetsiz tasavvur qilish mushkul. Ma'lumki, internet-axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'y lab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lisch, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risololarni sahifalash va hokazo) shartnomalarini bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messennjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish. Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideeniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohot jamiyat hayotida ko'plab evolyutsion o'zgarishlarning natijasi bo'lib, fuqarolar manfaatlarini to'liq ta'minlash va himoya qilish maqsadida u yoki bu darajada qonunchilik darajasida belgilanishini taqozo etadi. Konstitutsiyaning yangi tahriri loyihasining 33-moddasi uchinchi qismida butunjahon internet tarmog'iga kirish huquqlari kafolatlangan: "Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi". Bugungi kunda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jarayoni davom etmoqda, internetdan foydalanuvchilar soni ko'paymoqda, bu esa jahon internet tarmog'iga kirish huquqining daxlsizligini asosiy qonunda mustahkamlab qo'yishni taqozo etmoqda, bu esa, o'z navbatida, internet tarmog'idiagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirishga. O'zbekistonda aholining 95 foizi mobil internet, 70 foizgacha esa yuqori tezlikdagi simli internet qamrov zonasida ekanligi va o'sishda davom etayotganini alohida ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, kiritilayotgan o'zgartirishlar 2026-yil oxirigacha raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini kamida 2,5 barobar oshirishga qaratilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishning konstitutsiyaviy kafolatidir.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda avvalo kelajak rejalarini qurib, unda albatta yoshlarga e'tiborni kuchaytiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak bugungi kun jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri yoshlar masalasidir. Yoshlarga bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makoni juda keng imkoniyatlar yaratib berishi bilan birgalikda zararli axborot shaklidagi katta xavfni shakllantirmoqda. Bunday yoshlar kelajagiga ozining salbiy tasirirni otkazuvchi omillardan ularni asrab avaylash uchun yoshlar o'rtasida axborot madaniyatini rivojlantirish zarur bolib, o'z navbatida bu jamiyat siyosiy savodxonligi darajasiga ham yuqori darajada o'zining



ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Insoniyat ertangi kuni uchun kurashar ekan bunda yosh avlodning munosib davomchi sifatida shakllanishi uchun har tomonlama chuqr islohotlar amalga oshirib borishi va bunda yoshlarning ma'sullik hissini ham shakllantirib borishi talab etiladi. Sababi yoshlar oldiga qo'yilayotgan maqsadlar ularda qat'iy rioya qilinishi talab etiladigan me'yorlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar axborot istemolchisi sifatida avvalo axborot tasnifini anglashi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini to'liq anglab yetishi, zararli axborot maydoni ta'siridan o'zini himoya qilish prinsiplarini anglab yetishi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanganda talab etiladigan me'yorlarni to'liq anglab yetishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar bugungi kun talabidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasi.